

## XORIJIY TILLARNI O'QITISH JARAYONIDA ZAMONAVIY METODLARDAN FOYDALANISHNING O'RNI VA AHAMIYATI

Q. Begmatov<sup>1</sup>, B. Niyatqobilova<sup>2</sup>

### Annotatsiya:

Ushbu maqolada xorijiy tillarni, xususan ingliz tilini o'qitishda bugungi zamonaviy metodlarning turlari, yangi metodlarning dars jarayonlarida qo'llanilishi va samaradorligi yoritib beriladi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida chet tilini o'rganishga berilayotgan e'tibor va yosh o'rganuvchilar yangi metodlar orqali qanchalik tez va puxta bilimlarga ega bo'lishayotgani haqida ma'lumotlar keltirilgan.

*Kalit so'zlar:* metodologiya, innovatsiya, xorijiy til, muloqot, metod, didaktika, xalqaro madaniyat, xalqaro muloqot.

doi: <https://doi.org/10.2024/rdv74e03>

### Kirish:

Bugungi kunda xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan talab Respublikamizda sezilarli darajada oshgan. Yosh avlod vakillari ingliz tilini maktabgacha bo'lgan ta'limdan boshlab, maktabda va maktabdan keyingi o'quv yurtlarida ham o'rganishni davom ettirishmoqda. Til bilish orqali qo'lga kiritiladigan qulayliklar hamda qo'shimcha imkoniyatlarning hisobi yo'q. Bu esa o'z o'zidan ingliz tili fani o'qituvchilariga ulkan mas'uliyat yuklaydi. O'quvchilarga ingliz tilidan bilimlar berish, ularning 4 ta asosiy til qobiliyatlarini rivojlantirishda shunchaki o'qitishning o'zi yetarli emas. Hozirgi zamon o'quvchilarining xarakteristikasidan kelib chiqqan holda, o'qituvchilarimizdan zukkolik, darsga qiziqtirish san'ati talab qilinadi. Aks holda o'quvchilar darslarni o'zlashtira olmaydilar. Shu o'rinda innovatsion o'qitish metodlari zamon talabiga aylanib ulgurgan desam mubolag'a bo'lmaydi.

Ingliz tili ilm-fan, texnologiyalar, turizm va diplomatik aloqalar tili hisoblanadi. Dunyodagi mavjud ma'lumotlarning 85% qismi ingliz tilida. Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Yevropa Ittifoqi, Jahon Savdo Tashkiloti singari ko'plab yirik tashkilotlarning rasmiy tili ham ingliz tili hisoblanadi. Ingliz tilini bilish orqali siz ko'pgina forumlarda qatnashishingiz va chet ellik bilimdonlar bilan o'zaro fikr almashishingiz mumkin. Keltirilgan ma'lumotlardan kelib chiqqan holda, ingliz tilini o'rganishga bo'lgan talab qanchalik ekanini sezish mumkin. Qanday qilib bu tilni oson va samarali o'rganish mumkin degan savolga esa javob aniq: zamonaviy metodlar orqali.

### Asosiy Qism:

Chet tilini o'rgatish jarayoni ham huddi boshqa fanlar kabi o'z nazariyalarini, o'rgatish usullarini, terminlarini yillar davomida rivojlantirib o'zgartirib boradi. Biz aynan bitta metodni mana shu eng zo'r o'qitish uslubi

Bekmuratova UB "Ingliz tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish" mavzusida referat. Toshkent-2012 deb ayta olmaymiz. O'qituvchilar o'z tajribalaridan kelib chiqib, o'quvchilarning tushunish qobiliyatlari va bilim darajalariga ko'ra ma'lum bir metodni tanlaydilar. Quyida bir qancha yangi chet tillarini o'rgatish metodlarini ko'rib chiqamiz.

<sup>1</sup> Begmatov Quvonchbek Muxtarovich, Samarqand Davlat chet tillari instituti dotsenti v.b.

<sup>2</sup> Niyatqobilova Bonu Xoljigitovna, Samarqand Davlat chet tillari instituti, tarjimashunoslik va filologiya fakulteti, 2-kurs magistranti

-Topshiriqqa asoslangan yondashuv.

Bu metodimiz o'quvchilarga topshiriqlar asosida o'rgatishni o'z ichiga oladi. Bunda o'qituvchi o'quvchilarga muayyan bir topshiriqni beradi. Topshiriq o'quvchilar real hayotda duch kelib qolishi mumkin bo'lgan vaziyatlardan olingan bo'lishi shart. Shunda o'quvchi ham o'rgangan so'zlarini ishlatishga harakat qiladi, ham o'sha vaziyatga tushib qolganda nima qilish kerakligini o'rganib oladi. Topshiriqlar turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, restoranda ovqat buyurtma qilish, kitob do'konidan ma'lum bir kitoblar to'g'risida ma'lumotlar olib sotib olish, mehmonxonada xona band qilish, qaysidir teatr spektaklini tanqid qilish va hokazolar.

-Taqdimotga asoslangan yondashuv.

Ushbu yondashuv asosan oliy ta'lim talabalariga ishlatilgan, shunga qaramay so'ngi 5 yil mobaynida akademik litsey hamda maktabning yuqori sinf o'quvchilariga ham qo'llanila boshlandi.

Taqdimotga asoslangan yondashuv o'quvchilarni izlanishga undaydigan metod hisoblanadi. U til ko'nikmalarini va ijodkorlik salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan. Biron bir mavzuni tugatgandan so'ng o'quvchi unga oid prezentatsiyasi ustida ishlashi hamda uni ingliz tilida himoya qilishi zarur. Masalan, "Mening uyim", "Kelajak rejalarim", "Dunyoning turistik shaharlari" mavzulari. Turli xil jadvallardan, rasm va stikerlardan foydalangan holda prezentatsiyani taqdim qilish, ingliz tilini amalda qo'llash, so'z boyligini oshirish va yodda saqlash qobiliyatini rivojlantirish uchun ajoyib usul hisoblanadi.

-O'yinlashtirish metodi.

Gamification – bu ta'lim jarayoniga o'yin elementlarini kiritishdir. O'quvchilar uchun qiziqarli bo'lgan vazifalar va mukofotlar orqali ularning motivatsiyasini oshirish mumkin. Misol uchun, o'quvchilar ma'lum ball to'plaganlarida yoki vazifalarni bajarganlarida mukofotlarga ega bo'lishlari mumkin. Bu usul o'quvchilarning qiziqishini oshiradi va ularni faol ishtirok etishga undaydi.

-Teatrlashtirish yoki drammatizatsiya

Ingliz tilidagi teatrlashtirish metodi ko'plab o'qituvchilarning sevimli dars usuli va ko'plab talabalarining sevimli mashg'ulotidir. Bolalar, ayniqsa, jasur shahzodalar va malikalar, yovuz jodugarlar va yaxshi parilar, sehirli mavjudotlar va gapiradigan hayvonlar dunyosiga sho'ng'ishadi. Bolalar syujetga tezda jalb qilinadi va voqealarni, sevimli qahramonlarni va ularning jozibali iboralarini osongina eslab qoladi. Bu metod orqali bolalarning gapirish va eshitish mahoratlarini sezilarli darajada rivojlantirish mumkin.

-Interaktiv Texnologiyalar

Hozirgi zamon texnologiyalari, masalan, mobil ilovalar, internet saytlari va virtual sinflar chet tilini o'rganishni ancha osonlashtirdi. Duolingo, Babbel va Rosetta Stone kabi ilovalar orqali talabalar istalgan vaqtda va istalgan joyda til o'rganish imkoniyatiga ega bo'lishdi. Bundan tashqari, Zoom kabi videokonferensiya platformalari orqali chet ellik o'qituvchilar bilan bevosita muloqot qilish imkoniyati mavjud.

-Madaniy aloqa

Chet tilini o'rganishda o'sha xalq madaniyatini tushunish juda muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarni turli madaniyatlar bilan tanishtirish, ularning tilni qanday ishlatishini ko'rsatish orqali yanada chuqurroq bilim olishlariga yordam beradi. Madaniy almashinuv dasturlari yoki onlayn muloqot platformalari orqali talabalar boshqa mamlakatlardagi tengdoshlari bilan muloqot qilishlari mumkin.

Xulosa

Bugungi rivojlanayotgan davrda chet tillarini o'qish va o'qitishga katta e'tibor berish bilan birgalikda yangi metodlarni, innovatsion g'oyalarni va texnologiyalarni ko'paytirish ham talab qilinmoqda. Bu jarayon, nafaqat ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish, balki o'quvchilarning qiziqishini uyg'otish maqsadida ham muhim ahamiyatga ega. O'qituvchilar o'z darslarida yangiliklarni qo'llash orqali o'quvchilarning diqqatini jalb qilishlari, ularning

o'rganish jarayonini yanada qiziqarli va interaktiv qilishlari mumkin. Xususan, texnologik vositalar chet tilini o'rganishning har bir qobiliyatiga — o'qish, yozish, tinglab tushunish va gapirish — osonlik bilan yordam beradi. Mobil ilovalar, onlayn platformalar va interaktiv dasturlar orqali o'quvchilar o'z bilimlarini mustahkamlashlari va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishlari mumkin. Shuningdek, texnologiyalar yordamida o'quvchilar o'z-o'zini baholash va mustaqil ravishda o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa ularga darsdan tashqarida ham chet tilini o'rganishga rag'batlantiradi va ularning bilim darajasini yanada oshiradi. Umuman olganda, innovatsion yondashuvlar va zamonaviy texnologiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish, chet tillarini o'rganish jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilish imkoniyatini yaratadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

[1]. "The Changing Landscape of English Language Teaching and Learning". David Nunan, Professor Emeritus, University of Hong Kong. The International Research Foundation, Monterey, CA. (2023) In E. Hinkel (Ed.) Handbook of practical second language teaching and learning. (pp. 3 – 23) Volume IV. Routledge.

[2]. Akbar T. Opportunities to Form Spiritual Competence in Students of the 10-11th Class //Web of Scholars: Multidimensional Research Journal. – 2022. – T. 1. – №. 8. – С. 160-167.

[3]. Ашуров Ш. Хорижий тилларни ўрганишда маданиятнинг таъсири //Иностранная филология: язык, литература, образование. – 2018. – Т. 3. – №. 2 (67). – С. 10-14.

[4]. Ашуров, Ш. (2022). Хорижий тилларни о'qitishda innovatsion texnologiyalarni joriy etishning ahamiyati. Анализ актуальных проблем, инноваций, традиций, решений и художественной литературы в преподавании иностранных языков, 1(01), 294–296. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/analysis-problem/article/view/12979>

[5]. Passov E. I. General method of foreign exchange training. -Moscow., 1985.

[6]. Bekmuratova UB "Ingliz tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish" mavzusida referat. Toshkent-2012

[7]. Eisner, E. (1967) Educational objectives: Help or hindrance? The School Review, 75 (Autumn, 1967), 250 – 260

[8]. Bruner, J. (2006). In search of pedagogy. Volume II. The Selected Works of Jerome S. Bruner. World Library of Educationalists Series. Routledge.